

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan

№ 47 (66328)
2001 yil 23 noyabr, juma

Sotuvda erkin narxda

YANA BIR MAROQLI KECHA

Har gal maktabimizda biron bir tadbir yoki uchrashuv o'tkaziladigan bo'lsa, falon sinflarning o'quvchilari qatnashishadi, deya e'lon qilinardi. O'quvchilarning badiiy kitob o'qishga qiziqishlarini bilish maqsadida o'tkazilgan kechamizda ishtirok etish ixtiyoriy bo'ldi. O'zingizdan qolar gap yo'q, orangizda kitob o'qishdan ko'ra, televizor, video tomosha qilishni afzal ko'radiganlar ham talaygina. Shuning uchun ham tadbirida unchalik ko'p o'quvchilar qatnashmasa kerak, degan hadikda edim. Buni qarangki, sevimli yozuvchimiz Tohir Malik bilan bo'ladigan uchrashuvga yig'ilgan o'g'il-qizlar maktabimizning kattagina zaliga ham sig'may ketishdi.

- Tohir Malik bilan uchrashuv bo'larmish, degan xushxabarni eshitib, taklif qilinmagan bo'lsak ham kirib kelaverdik, - deya kechamizga yanada fayz kiritishdi mahallamiz oqsoqollari...

O'quvchilar Tohir Malikni savollarga ko'mib tashlashdi. Adibimizning maroqli suhbatidan uning hayoti, ijodiga oid ko'plab ma'lumotlarni bilib olishdi. "Shaytanat"ning to'rtinchi kitobini yozayotganliklari haqidagi yangilikni eshitib, qarsak chalib yuborishdi.

- Nima uchun siz shoir emas, aynan yozuvchi bo'lgansiz? - deya savol berdi o'quvchilardan biri.

- Sizlarga aytсам, meni qizlar yozuvchi qilib qo'yishgan. Shoiralar xushmuomala, shirinso'z bo'lishadi. Siz esa qo'polsiz, sizdan shoir

chiqmaydi, deyishardi. Shuning uchun ham yozuvchi bo'lib qolganmanda, - deya hazil aralash javob berdilar Tohir aka...

- Sizlarning adabiyotga bo'lgan ishtiyoqingizni ko'rib, juda quvondim. Men juda ko'plab maktablarda uchrashuvlarda, tengdoshlaringiz davralarida bo'laman. Bunday uchrashuvlar menga ilhom bag'ishlaydi, samimiy fikrlaringiz, tilak va istaklaringiz yangi-yangi asarlar yozishga undaydi...

Sevimli shoiramiz Zulfiya Mo'minova olib borgan adabiy kechamiz juda maroqli o'tdi.

Nasiba TURDIQULOVA,
Toshkent shahar,
Sirg'ali tumanidagi
322 - maktab
o'qituvchisi.

Kuzgi ta'tilda maktabimizda barcha fanlardan olimpiada bo'lib o'tdi. Bilimlar sinovi sinash maqsadida olimpiadalarda faol ishtirok etdik. Sinfdo'shlarimdan Aziz, Go'zal, Nargiza va men algebra fanidan qatnashdik. O'qituvchimiz Kamola opa bizga test savollarini tarqatdilar. Savollarning


barchasiga aniq va puxta javob berishga harakat qildik. Bir yarim soat davomida barchamizni hayajon bosdi. Matematika fanini puxta o'rganganimiz uchun barcha savollarga to'g'ri javob berdik.

Keyingi kuni esa ona tili va adabiyot fanidan bo'ldi. Uni ustozimiz Dilshoda opa o'tkazdi. Bu fandan ham maktabimiz o'quvchilari puxta bilim olganliklarini namoyish etishdi.

Bundan tashqari olimpiada rus tili, ximiya, tarix, geografiya, ingliz tili fanlaridan ham o'tkazildi.

Biz bilimlar sinovida faol qatnashganimizdan xursand bo'ldik. Hali ko'plab o'qishimiz kerakligini, bilimimizni yanada mustahkamlashimizni bilib oldik.

Munisa IMOMOVA,
Hamza tumanidagi
Rudakiy nomli 231-
maktabning 8 - «A» sinf
o'quvchisi.

RAMAZON AYTIJB KELDIK
ESHIGINGIZGA...

Ramazon aytib
keldik eshigingizga.
Oo'chqordek o'g'il
bersin beshigingizga.
O'choqda kul,
karmonda pul,
Chiqaraqoling, o'n
so'm pul.

Aziz bolajonlar, ramazon aytishni juda ham sog'ingan bo'lsangiz kerak-a? Mana siz kutgan, oy - musulmonlarning muqaddas sanalmish ramazon oyi ham boshlandi.

Har gal Ramazon oyida bolaligimdagi bir voqea bot-bot yodimga tushaveradi. Boshqa bolalar kabi bu oyni men ham juda yaxshi ko'rardim. Chunki ramazon kelishi bilan eshikma-eshik ramazon aytib pul va shirinliklar yig'ardik. Bu odatning o'zgacha gashti, zavqi borligi uchun shunday qilardik.

Aka-singillarim, mahalladagi bolalar yig'ilishib, ko'chamizning boshidagi bir xonadondan ramazon aytishni boshladik. Baland ovozda, jo'r bo'lib ramazon aytib bo'lgan ham edikki, ichkaridan bir ayol chiqib, ustimizga muzdek suv sepib yubordi. Ust-boshimiz shalabbo bo'lib, yig'lab, uy-uyimizga tarqaldik. Shu-shu hecham ramazon aytmaydigan bo'lganman...

Keksa otaxonu onaxonlarimizning aytishlaricha, ramazon aytish savob, ramazon aytganni siylash undanda kattaroq savob ekan. Ramazon aytib kelgan bolalar o'zlari bilan farishtalarni yetaklab kelisharkan. Ramazon aytilgan xonadonga tinchlik, qut-baraka va sog'liq ham kirib kelar ekan.

Hozir eshigimiz tagiga ramazon aytib kelgan bolalarni iloji boricha xursand qilib jo'natishga harakat qilaman. Ularga atab tangalar va shirinliklar olib qo'yaman.

Shunday muqaddas, ulug' ayyom kunlarida bir-birimizga xushmuomalada bo'lib, ezgu ishlar qilishga ne yetsin!

Shahlo MUTALOVA.

OROLGA XAT

Qadrdonimiz Orol! Hozir sen barchaning tashvishu dardiga aylangansan. Ota-onalarimiz, katta yoshlilarning aytishlaricha, avvallari sening suving to'lib-toshib, qirg'oqqa sanchib turar ekan, baliqlar unib-o'sib, ko'payib, xalqimizga rizq-nasiba bo'lgan ekan. Ikkinchi jahon urushi yillarida Orol dengizi baliqlari nafaqat xalqimizni, balki jang qilayotgan askarlarni boqqan, ularga kuch-quvvat bo'lgan.

Orolim! Ertakka aylangan o'sha kunlarni, o'sha boyliklaringni bugungi avlod - bizlar ham ko'rgimiz keladi. Yozgi ta'til kunlarida loyqa suvlarda to'yib-to'yib cho'milgimiz, bolalikning unutilmas fursatlarini ko'ngilli o'tkazgimiz keladi.

Azizim Orol! Sen biz bolalarning yorqin kelajagi uchun yashamog'ing kerak!

Nazokat NISHONOVA,
Nukus shahri, 35 - sonli o'rta maktabning
3 - sinf o'quvchisi.

Aziz bolalar! Gazetamizning 3 - 4 sahifalarida qoraqalpog'istonlik tengdoshlaringiz hayotidan lavhalar o'qiydiz.



PAXTA TERISHMI YO O'QISH

Barchamizga ma'lum, kuz kelishi bilan paxta qiyg'os ochilib hamma terimga oshiqadi. 7 yoshdan 70 yoshgacha paxta terimida bo'ladi. Shu qatori maktab o'quvchilari ham. Men kuz kelganda maktabdoshlarim bilan paxta terishni yaxshi ko'raman. Ayniqsa, o'yinkulgu bilan. Do'stlar davrasiga nima yetsin. Lekin nafaqat meni, barcha maktabdoshlarimni o'ylantiruvchi bir muammo, ya'ni paxta vaqtida qolib ketgan darslar o'ylantiradi. Ular nima bo'ladi? Hech kimni bu narsa qiziqtirmaydi. Axir biz bu darslarni o'zlashtirilmay qolib ketamiz. Keyingi mavzularga tushunishimiz qiyin bo'ladi. Nahot bunga barcha befarq?

Oynisa Eshmurodova,
Samarqand viloyati,
Oqtosh shahridagi 59-
maktab o'quvchisi.

XATLAR TEGIRMONI



ARMON

(Qatra)

Keksa bog'bon o'z bog'iga yong'oq ekdi. Yong'oq daraxti tagini tez-tez tozalab, yumshatib turdi. Biroz horigan vaqtida maysalar ustida o'tirib, o'zining qilgan ishiga havas bilan qaradi.

- Shu daraxtlarimning mevalaridan yesam armonim yo'q edi, dedi sekingina shivirlab.

Buni qarangki, bog'bon chol to'qson yoshdan o'tganda ekkan yong'oq daraxtlari meva berdi. Mevalardan tanovul qildi. Biroq ko'p yemadi. Tishlari dosh bermadi. Bundan xafa bo'lib o'rnidan turmoqchi edi, ammo buni ham uddalay olmadi. Shunda yoshlik chog'larini esladi. Bolalik, o'quvchilik onlari qanday mazza edi. Ot minib, tengdoshlari bilan poygaga chiqardi-ya.

Hozir esa turishga madori yo'q. O'tirgan o'rnida biror ish bilan shug'ullanay desa, kuchi yo'q. Ko'zining ham nuri pasaygan. Eshitish qobiliyati ham haligiday.

Shunda mo'ysafid chuqur o'yg'a botdi.

-Eh, bir zungina sog'ligim, bolaligimdagi kuch-qudratim qaytsa, armonim yo'q edi.

Sanobar JUMAYEVA,

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Amudaryo tumanidagi
11- maktabning 7- "b" sinf o'quvchisi.



KAMCHILIK HAM YO'Q EMAS

1996 yida yaxshi niyatlar bilan Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida 2- litsey-internati tashkil etildi. Ushbu litsey K. Rustamova jamoa xo'jaligida joylashgan edi. Ayrim sabablarga ko'ra ikki yildan so'ng litsey shahar markazidagi eskiroq binoga ko'chirildi. Bino yildan-yilga ta'mirlanib, zamon talabiga javob beradigan binoga aylandi.

O'qituvchilari o'quvchilar test asosida qabul qilindi.

Bugungi kunda internatda o'quvchilari shahar, viloyat, Respublika olimpiadalarida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelishmoqda. Masalan, Farrux Vahobov o'tgan yili huquqshunoslik fanidan respublika miqyosida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Litsey-internatda ta'lim- tarbiya olgan sobiq o'quvchilar turli oliy o'quv yurti talabalaridir. Ushbu litsey-internatga Aliqul Norov rahbarlik qiladilar.

Litseyda talabchan o'qituvchilar juda ko'p. Ulardan S. Joniyev, N. Isomiddinov, N. Isroilova, A. Ashurov kabilar shular jumlasidandir.

Litsey-internatda yutuqlar bilan birga kamchiliklar ham yo'q emas. Hali litseyga kompyuter kirib kelmagan. Sport zali yo'q. O'ylaymizki ana shunday iqtidorli o'quvchilar ta'lim-tarbiya olayotgan ushbu maskanda bu ishlar tez orada bitadi.

Komil YORIYEV,
O'z MU talabasi.

UMR

Men bir qor misoli tushdim osmondan,

Quyoshli kunlarda erishim ham bor.

Shu qisqa umrimda xalqim qalbidan,

Bir umrlik joy olishim ham bor.



Hayotning notekis bu yo'llaridan,

Qoqinib, surinib, o'tishim ham bor.

Quyoshli kunlarda bir jilg'a bo'lib,

Shu elga kerak bo'lishim ham bor.

Dilfuza RAJABOVA,
Navoiy viloyati, Konimex tumani, O'zbekiston qishlog'i.

KECING, JUMBOQ AYTAYIN, SIZLAR UCHUN ATAYIN!

Kechagidek esimda, o'shanda men maktabda 5-sinfda o'qirdim. 3-sinfmdan buyon tabiat yil fasllari, ona, maktab, vatan haqida kichik-kichik she'rlar yozib yurardim. 1973 yil, dekabr. Kunlarning birida she'r daftarimni varaqlab o'tirib bir she'rimni gazetaga yo'llash istagi tug'ildi va uni xatjildga joylab, pochta orqali gazeta tahririyatiga yo'lladim.

1974 yil, 5 may. Men uchun hayotimda eng quvonchli va hayajonli kun bo'ldi. Shu kuni gazetada «Ona - Vatanim» nomli she'rim bosilib, sinfdoshlarim, maktabdoshlarim, mahalladoshlarim, xullas, barcha meni bu quvonch bilan qizg'in qutlashgandi.

Oradan bir hafta o'tar-o'tmas respublikamizning barcha

viloyatlaridan, qo'shni respublikalarda bu gazetani o'quvchi mushtariylaridan bir sandiqcha maktub olgandim.

Xatlarning bari: «... ijodingizga rivoj», «keling do'stlashaylik» mazmunda edi.

Shu-shu bo'ldi-yu ijod qilishga astoydil kirishdim. Mana, salkam 30 yildirki, ijod bilan mashg'ulman.

Yozganlarim tuman, viloyat miqyosidan tashqari respublika nashrlari bo'lmish - «Turkiston» kabi gazeta, jurnallarda bosilib kelmoqda.

Hozirda 200 ga yaqin bolalar uchun turli mavzularda yozgan she'rlarim bor. Afsus, hali birorta to'plamim chiqqani yo'q. Agarda chiqqanda bolalar uchun eng yaxshi sovg'a bo'lardi...

1. Eng uzun daryo
nomin

Qani, kim ayta oladi?...

2. Sirdaryo irmog'i-ichi,
U ne deb ataladi?..

3. Toshkent viloyatida
ham

Daryo bor, nomin
ayting...

4. Quyar joyi yo'q daryo -
Uning nomin aytar kim?

5. Aytay, yana Sirdaryo
Suvi zilol irmog'in.

Uning nomi ne? Ayting
O'ylab ko'rib bu yog'in ...

6. Toping-chi endi nomin

Daryoni - janubdagi ...

7. Keyingisi: u ko'mir
Havzasi nomidagi? ...

8. Turkiston tizmasidan
Boshlanuvchi daryo bor.
Bu daryoning nomini
Xo'sh, kim aytmoqqa
tayyor? ..

9. Farg'ona vodiysida
Bor yana bitta daryo
Buning nomi nimadir?
Bu ham sizga muammo

10. Va nihoyat so'nggisi:
Janubda daryo ismi ...

**Abdumannop
TOSHTEMIROV,**
Farg'ona viloyati,
Bog'dod tumani 1-
umumta'lim
maktabining ona tili va
adabiyot fani muallimi.

HAR OYDA 100 SO'MDAN

Bizning maktabimizda sportni, jismoniy tarbiya darsini sevmaydigan o'quvchini topish mushkul. Shuning uchun ham sport zalimiz doimo gavjum bo'ladi. Tanaffusga qo'ng'iroq chalinishi bilan barchamiz u yerga oshiqamiz. Ayniqsa, o'g'il bolalarni aytmayisizmi, miriqib futbol o'ynashadi. Sportga qiziqishimizga yana bir sabab, maktabimizda bu fanga jiddiy e'tibor berilayotgani, shart-sharoitlarning bisyorligi hamdir.

Maktabimizda «Maktab jamg'armasi» tashkil qilingan bo'lib, har oyda 100 so'mdan mablag' ajratamiz. Yig'ilgan mablag'imiz sport zalimizni zamon talablari darajasida qayta ta'minlashga, futbol, basketbol hamda qo'l to'plari, turniklar, yo'g'on arqon (kanat) kabi turli sport anjomlari sotib olish uchun sarflanadi.

Sport - salomatlik garovi deb bejiz aytilmagan. Darslardan bo'sh vaqtimizni unumli o'tkazishimiz, salomatligimizni tiklashimiz uchun bizga bunday shart-sharoitlar yaratib berayotgan ustozlarimizdan, xususan, maktabimiz rahbari Mavluda opa Ismatova, jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarimiz Asad aka, Husan akalardan behad minnatdormiz.


Dilnoza PO'LATOVA,
Yunus-Obod tumanidagi 273
- litsey maktabning jurnalistika
guruhi o'quvchisi.

Aziz bolalar! «Guncha» jurnalini sevib o'qiysiz-a?
 Ana shu jurnalning bosh muharriri Yoqut Rahimova «Shirinni taniysizmi?»
 nomli to'plamini ham sizga atagan.
 To'plam «Maktab kutubxonasi» seriyasida G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va
 san'at nashriyotida chop etilmoqda.
 Quyida to'plamdagi hikoyalardan birini o'qing.

SHIRINNI TANIYSIZMI?

Shirin maktabdan keldi. Qarasa, uyda hech kim yo'q. Dadasi ishda. Oyisi ham hali ishdan kelmad.

U xonasiga kirib, kiyimlarini almashtirib chiqdi. «Nima ish qilsam



ekan-a?» — dedi zerikib o'ziga-o'zi. Hammayoqda ukasining o'yinchoqlari - ayiqpolvon, fil, bir quloqli quyon sochilib yotardi.

«Uylarni yig'ishtirib, tozalab chiqsammikan?», — xayolidan o'tkazdi Shirin. Ammo shu payt q o r n i o ch g a n l i g i n i p a y q a d i . Oshxonaga kirib, nonga sariyog' surib yeya b o s h l a d i .

Termosdagi issiq choydan piyolaga quyib, murabbo bilan ichar ekan, oshxonadagi bir to'p yuvisiz idish-tovoqlarga ko'zi tushdi. Ertalab o'zi choy ichgan: «Maktabga kech qolaman», deb yuvmasdan qoldirib ketgan edi.

«Hozir choyimni ichib bo'lgach, idish-tovoqlarni yuvib, oshxonani tartibga keltirib qo'yaman», — deb o'yladi.

«Yoki... yaxshisi, biror ovqat qilib tursammikin-a!» — dedi yana bir ozdan keyin ikkilanib. — Oyim ham ishdan kelib, rosa

sevinardilar». U balkondan kartoshka olib chiqib, archishni o'ylagandi, qarasa, toza idish yo'q...

«Yo'q, avval idish-tovoqlarni yuvib, uylarni tozalab, keyin ovqatga



Shirin. — Yaxshisi, multfilm ko'rib turaman».

U televizorning qulog'ini burab, uning ro'parasidagi kresloga o'zini tashladi.

Ayting-chi, siz Shiringa o'xshagan qizni uchratganmisiz o'zi? Sizningcha, u to'g'ri ish qildimi?

Siz uning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz?

Yoqut RAHIMOVA.

BILASIZMI?

YULDUZ, TA'TIL VA TAQVIM

Buyuk yunon faylasufi Platon (Aflotun) Afinaning tagli-taxtli zodagonlar tabaqasiga mansub bo'lib, yoshlik chog'larida Sokrat (Suqrot)ning sevikli shogirdlaridan biri bo'ladi. Ustozi qatl qilingach, u Afinani tashlab ketib, bir necha yillarni sayohatda o'tkazadi. Yunonistonning turli shaharlarida, hatto uzoq Misrda, Sitsiliya orollaridagi Sirakuz shahrida bo'ladi. Nihoyat, Afinaga qaytib kelib, Akadem ismli qahramonning ibodatxonasi bog'ida o'z maktabini ochadi. Bu yerda faylasuflar, olimlar, san'at shinavandalari yig'ilib, ustoz o'gitlaridan bahramand bo'lishgan. Platonning san'at va adabiyot, falsafa va hayot haqida aytgan fikrlari keyinchalik barcha olim va san'atkorlarning shioriga aylanib ketgan. Uning maktabi «Akademiya» deb atala boshlagan. Keyinchalik esa olimlar bilim oladigan muassasalar «Akademiya» nomi bilan atala boshlagan.

«Ta'til» so'zini yaxshi ko'rmaydigan o'quvchi topilmasa kerak. Bu darslar tugab, nihoyat qattiqqo'l muallimlardan qutulish demakdir.

Ta'til bu oromgohlardagi maroqli dam olishlar, daryo-ko'llarda mazza qilib cho'milishu oftobda qorayishlar. Ta'til ayniqsa, dangasa bolalarning joni-dili...

Ta'tilni juda yaxshi ko'radigan bolalar bu so'z aslida ... «it kunlari» degan ma'noni anglatishini bilishmasa kerak. Hamma barobar yoqtiradigan yoqimli ta'tilning bunday xunuk nomlanishiga qadimgi misrliklar sababchidir.

Qadimgi misrliklar katta it turkumining yorqin yulduzi - Sirius (yunoncha «yalitiroq» degani) osmonda paydo bo'lgan kunlari Nil daryosi toshqinlari ro'y berishini, so'ngra jazirama issiqlar boshlanishini bilganlar. Ular bu kunni aniq hisoblaganlar va Sirius tong osmonida paydo bo'lganida ekin-tikin ishlaridan biror

muddatga ta'til berilgan. O'sha davrlarda Siriusni «It yulduzi» deb atashgan. Lotin tilida «it» so'zi «kanis»ni anglatadi. Shundan so'ng qadimgi rimliklar yozgi jazirama kunlar va kundalik ishlardan dam oladigan davrni ta'til deb ya'ni «it kunlari» deb, atay boshlashgan. Qizig'i shundaki, u vaqtlarda ta'til odamlar uchun tahlikali davr hisoblangan. Omi odamlar Sirius insonlarda bezgak va itlarda quturish kasalini chaqiradi, deb hisoblashgan.

Hozir esa olmosdek Siriusga havas bilan boqadilar, o'qishlar nihoyasiga yetib, mazza qilib dam oladigan davr - ta'tilni bolalar nihoyatda yaxshi ko'rishadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Siriusning osmonda paydo bo'lishi insonlar hayotida muhim o'rin tutuvchi taqvimning yaratilishiga ham sabab bo'lgan. Misrlik koinlar Nil daryosining u toshqinidan bu toshqinigacha 365 kun o'tishini hisoblab chiqishgan. Har safar toshqin ro'y bergan kuni

osmonda Sirius paydo bo'lar ekan.

Odamlar Nil daryosining toshqiniga qadar kanallarni tozalab, to'g'onlarni tuzatib qo'yishlari kerak edi. Daryo suvi o'z vaqtida ushlab qolinmasa, u dengizga oqib ketar, oqibatda qurg'oqchilik ro'y berib, hosil nobut bo'lardi.

Misrliklar Sirius osmonda ko'rinadigan kunlari oralig'idagi 365 kunni 1 yil deb hisoblashgan. 365 kunni 30 kunlik qilib, 12 bo'lakka bo'lganlar, qolgan 5 kunni yil oxiriga qo'shimcha sifatida joylashtirishgan. Shu tariqa ilk taqvim vujudga kelgan.

O'z asarlari bilan yunon ilmu-fanni, falsafiy bilimlarini barkamol etgan buyuk olim va mutafakkir Aristotel (Arastu) Makedoniyaning Stagiriya shahrida tug'ilgan. Uning otasi Makedoniya podshohining tabibi bo'lgan, o'zi ham yoshligida otasining izidan borib, tibbiyot va boshqa bilimlar bilan shug'ullangan. Keyin Afinaga kelib, yigirma yilcha Platonga shogird bo'ladi. 342 yilda podshoh Filippning taklifi bilan Makedoniyaga qaytib, bir necha yil shahzoda Aleksandr (Iskandar Zulqarnayn)ga murabbiylik qiladi. Ajoyib mantiq egasi, sinchkov kuzatuvchi va chuqur bilimli Aristotel tabiatdagi va inson hayotidagi har qanday voqea-hodisani to'la baholay olardi. Uning suhbatini tinglash uchun qadimgi Yunonistonning hamma tomonlaridan odamlar kelishar, bahslashuvga esa ayrimlarga botina olishardi. Aristotel 347 yilda Afinaga qaytib keladi va Likey jamoatchilik binosida o'z maktabini ochadi. U o'z davrining ma'lum ilmiy ma'lumotlarini mantiqan bir-biriga bog'lagan holda aniq sistemaga solib, yoshlarga bilim bera boshladi.

Oradan necha-necha asrlar o'tib ketganiga qaramay Aristotel (Arastu) asos solgan maktablar hamon mavjud va ular «litsey» deb ataladi.

Muhabbat YO'LDOSHEVA
 tayyorladi.

JETKINSHEK

«Jetkinshek» Qoraqalpog'iston Respublikasi bolalari va o'smirlarining nashri bo'lib, uning ilk soni 1932 yil 20 yanvarda lotin yozuvida chiqarilgan. Shu yillar mobaynida gazeta bolalarning eng sevimli nashriga aylandi. Gazetamiz yosh avlodga Vatanni sevis, jonajon tabiatga muhabbat, do'stlikni qadrlash kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilib kelyapti.

Bugungi kunda gazetamiz lotin grafikasida qoraqalpog' tilida chop etilyapti. Gazetamizning faol muxbirlari, o'quvchilari soni kun sayin ortib bormoqda. Mushtariylarimiz bilan alogani yanada mustahkamlash, iqtidorli o'g'il-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida har yili turli

mayzularda tanlovlar uyushtiramiz. Masalan, o'tgan yili «Sog'lom avlod yili» munosabati bilan «Baxtli bolalik» tanlovini o'tkazgan bo'lsak, mazkur «Onalar va bolalar» yilida «Mehribonim-ionim onam» tanlovini o'tkazdik. Tanlovga yuborilgan 200 dan ziyod asarlar orasidan eng yaxshi she'r, hikoya, maqola, rasm va kashtalar mualliflari g'olib deb topildi.

Bundan tashqari gazetamiz sahifalarida yangi-yangi ruknlar tashkil qilinib, turli klublar muntazam faoliyat ko'rsatib kelyapti.

Gazetamizdagi 1-2-sinf o'quvchilari uchun maxsus tayyorlanadigan «Tulkishek» sahifasi, «Kim topag'on?», «Kulgu burchagi», «Angov keskir» kabi klublari bolalar sevib o'qiydigan sahifalarga aylangan.

Mustaqilligimizning 10 yilligi munosabati bilan «Mustaqillik tengdoshi», «Jetkinshek anketasi», «Istiqlol g'unchalari»

ruknlarida muntazam maqolalar yoritib borilyapti.

Maqsadimiz - bolalarimizning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, ular ijodini yuksalishiga ulush qo'shishdan iborat.

Gulnora NURLIPESOVA,
«Jetkinshek» gazetasi bosh muharriri




SAFARING QUTLUG' BO'LSIN, OYPORA!

Maktabimizdagi fizika-matematika bo'limida o'qiydigan Oypora Berdimurodova o'tgan AKSELS= test savollaridan muvaffaqiyatli o'tib, Amerikada bir yil o'qib kelish imkoniyatiga muayassar bo'ldi. U juda chaqqon, mehnatsevar qiz. Oypora o'z mehnati, tirishqoqligi tufayli shunday yutuqqa erishdi. U poytaxtdagi «Progress» til o'rganish markaziga erinmasdan to'rt yil mobaynida qatnab, ingliz tili noziklarini o'ta mohirlik bilan o'zlashtirib oldi. Biz uning muvaffaqiyatlaridan quvonib, bu yutuqlarga qanday erishgani bilan qiziqdik.

Avvaliga osonday tuyulgani bilan, keyingi sinovlar bora-bora qiyinlashib boraverdi. Tinimsiz izlanishlarim qiyinchiliklarni yengib o'tishimda yordam berdi. Shartlarni muvaffaqiyatli bajarganimdan so'ng, sinov yakunini rosa olti oy toqatsizlana-toqatsizlana kutdim. Oylar menga yillar kabi tuyuldi. Mening bunday yutuqlarga erishishimda opam Maya Saparovaning ulkan ulushi bor. Sababi, opam ham AKSELSning yordami bilan 1998 yilda Amerikada o'qib kelgan edi. O'shandan buyon men opamga o'xshab Amerikada o'qib kelish orzusida edim. Tinimsiz o'qib-izlanishlar davom etdi. Opam menga bu borada juda ko'p yordam berdi. Talpingsang, harakat qilsang - orzularingga yetasan. Shunga ishonchim. Endi, mana Amerikaga safar qiladigan bo'lib turibmiz... Amerikada ko'p do'stlar orttirish, boy madaniyatni o'rganish niyatidaman. Shu maqsadda men hozir ingliz tilidan tarjimalar qilib, grammatikani teran o'rganayotirman. Albatta, Amerikada orttirgan do'stlaringa o'zim tug'ilib o'sgan Qoraqalpog'iston haqida hikoya qilib beraman. Har kimga o'z eli, o'z tug'ilib o'sgan Vatani kabi aziz makon bo'lmasa kerak! - deya so'zini tamomladi Oypora.

Amerikada o'qish baxtiga muayassar bo'lgan Oyporaga qutlug' safari muvaffaqiyatli o'tishini tilaymiz. «Yuzdan yugruk, mingdan tulpor chiqadi», deganlaridek, elimizda mana shunday ilmi, bilimli yoshlar hamisha ko'payaversin!

Ulbo'sin Erimbetova
Toshkentdagi 2-son litsey-internatning 10-sinf o'quvchisi



Bolalar, toping-chi, suv qaysi quvurdan kelyapti?

ISLON OTAMIZGA

Siz bor joyda biz shodmiz,
Quvonchlarga to'lamiz.
«Baxtli bo'lsin bolalar!» -
Deydi Islom otamiz.
Qoraqalpog' elimga,
Tug'ilib o'sgan yerimga.
Birinci sinf ukalarimga,
Kitob ila qalamni,
Ruchka, papka, daftarni,
Kiyimu kechaklarni
«Kelajak yoshlarga!» - deb,
Bergani uchun rahmat!
«Sog'lom avlod yili» deb,
Qo'ygani uchun rahmat!
Sizni doim siylaymiz,
Ishonchingiz oqlaymiz.
Har bir aytgan so'zingiz
Yodimizda saqlaymiz!

Nasiyballi
MAMBETIRZAYEVA,
Kegeyli tumanidagi 32-sonli
o'rta maktabning
4-sinf o'quvchisi.

PREZIDENTIMIZGA RAHMAT!


Men Orol dengizi bo'yida joylashgan Mo'ynoq tumanining «Shege» qishlog'ida tug'ilganman. Bir-ikki yildan beri daryoda suv tortilib qolganligi sababli, qishloq odamlari ichimlik suv masalasida biroz qiynalishdi. Bunda esa hukumatimiz tomonidan ko'pgina g'amxo'rliklar ko'rsatilmoqda. Qishloqning ko'p o'rinlarida quduq qazilib, suv kranlari o'rnatildi va ichimlik suv masalasi ham o'z vaqtida hal qilindi. Yaqindan buyon daryomizga suv kelib, butun xalqimiz quvonib qoldi. Bundan biz bolalar ham qattiq quvondik. Axir suv bo'lsagina tirikchilik bo'ladi-da.

Yaqinda xuddi shu suv masalasiga bag'ishlanib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori chiqqanligi qishloq odamlarini yanayam quvontirdi. Ayniqsa, qarorda ko'rsatilgani kabi, Toshkent, Samarqand, Farg'ona viloyatlaridagi salomatlik oromgohlarida qoraqalpog'istonlik 15 ming maktab

o'quvchilarining bepul dam olishini tashkil qilish ko'zda tutilgan. Bu biz bolalarni juda quvontirdi.

Bunday otalarcha g'amxo'rliigi uchun Prezidentimiz Islom Karimovga qoraqalpog'istonlik bolalar nomidan katta rahmatlar keladi.

Omongul KARIMOVA,
Mo'ynoq tumanidagi 11-o'rta maktabning
8-sinf o'quvchisi.



«Prezidentdan xat olgan qiz»
Mashhura SHARIPOVA

Bolalar! Biz ona tabiatni sevib, qadrlab o'rganishimiz kerak. Sababi, tabiatsiz tirikchilik, hayot yo'q. Yer, suv, havo, o'simliklar dunyosi, hayvonot dunyosi - bari-bari bizning yashashimiz uchun zarur bo'lgan mavjudotlardir. Suvsiz, ehtimol, bir kun, bir necha kun yashash mumkindir, biroq bir umr suvsiz yashash... Havo ham shunday. Demak, tabiatdagi hamma narsaning qadrini bilishimiz kerak.

Men kichikkina bir tumanda yashayman. Gohida suv kranning qulog'ini tovlab, suvni oqizib

ketsam ota-onam darhol menga tanbeh berishadi: «Qizim, suvni bekordan bekor oqizib qo'yma, suvning ham so'rog'i bor», - deyishadi ular. Vaqti kelganida men ham dugonalarimga mana shunday gaplarni aytib, ularni hushyorlikka chorlab turaman. Sababi, bir-ikki yildan beri

daryo-mizda suv ozayib, yam-yashil daraxtlarimiz quvrab-qurib qoldi. «Shularning bari suvni isrof qilib qo'ygandan» - deydi otam.

Biz - kichikintoylar tabiatimizni yanada go'zal va boy qilish uchun

suvning qadriga yetib, har bahorda terak, gul, mevali nihollarni o'tqazib, ularni yaxshi parvarish qilishimiz kerak. O'sib turgan daraxtlarni aslo sindirmasligimiz kerak. Ona tabiatdagi har qanday jonli jonivorning o'rnini, qadrini yaxshi o'rganishimiz shart. Ota-onalarimiz, ustozlarimiz o'gitlariga quloq tutaylik. Tabiatni asraylik, do'stlar!

Nozigul
MATEKEYEVA,
Nukus shahridagi 33-sonli
o'rta maktab o'quvchisi.

SUVNI QADRLAYLIK!

MEHMONIMIZ

Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat gerbi Qoraqalpog'iston Respublikasining mustaqil davlat ekanligini bildiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat gerbining o'ng tarafida sholi

uning ichidagi yarim oy va yulduz surati esa musulmonchilikning muqaddas ramzlaridir.

Gerbning markazida baxt va erkinlik timsoli bo'lgan Xumo qushi qanotlarini keng yoyib turibdi. Xumo qushining ortida Qoraqalpog'iston xalqlarining tarixiy

Respublikasining bayrog'ini ta'riflaydigan lentaga «Qoraqalpog'iston» so'zi yozilgan. Xumo - baxt qushi kumush rangda, dengizimiz hamisha yoshlikni anglatuvchi to'q ko'k rangda, sariq rang quyosh farzandlari

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING

DAVLAT GERBI

boshloqlari, chap tarafida ochilgan paxtalar burkangan g'o'za shoxlaridan iborat lenta bilan o'ralgan, tog' ortidan chiqib kelayotgan quyoshning Amudaryo va Orol timsoli bo'lgan bayrog' tasvirlangan.

Gerbning yuqori qismida 8 qirrali yulduz surati bo'lib, u xalqlarning birligini, birdamligini ta'riflaydi,

madaniyati, durdonalarining biri hisoblangan qadimiy Chalpiq qo'rg'oni, ya'ni xalqimizning madaniy tarixi uzoq-uzoqlarga borib taqalsada, hamisha navqiron ekanligini anglatuvchi tasvir chizilgan.

Gerbning past qismida Qoraqalpog'iston

ekanligimizni, umrning davomiyligini anglatuvchi tabiatning yasharishi yashil rangda. Niyatlarimizning maqsadlarimizning pokligi, xalqimizning hamisha baxtga, yaxshilikka intilishi oq rangda, qanchadan-qancha sinovlarni boshidan kechirgan taqdirimizning yorqin ekanligida go'zal tasvirlangan.

«JETKINSHEK»NING ANKETASI

1. Vatan, tug'ilgan yurt deganda nimani tushunasan?
2. «Yaxshilardan bog' qoladi...» degan hikmatli so'zni qanday izohlay olasan?
3. Agar sen hokim bo'lsang?...

Timur Shamshe'tov - Chimboy shahridagi 43-sonli o'rta matabning 3-rus sinfida a'lo baholar bilan o'qiyapti. Mustaqillik tengdoshi, 1991 yil 19 mart kuni tug'ilgan. Sinfidagi eng



namunali o'quvchilardan biri. Orzusi - huquqshunos, prokuror bo'lish.

1. Vatan, tug'ilgan yurt deganda men o'zimning kindik qonim tomgan Chimboy shahrini tushunaman. Men uchun eng sevimli bo'lgan insonlar - ota-onam, buvijonim, harf o'rgatgan mualli-

mehmon bo'lib bordim, shu yerdagi parkni, kardsellarni tomosha qildim, shirin-shirin muzqay-

moqlar yedim. Shundayam o'zimizning Chimboyni sog'inib qoldim. Men o'zim tug'ilib o'sgan Chimboy shahrini juda sevaman.

2. Uyda otam bizga juda mehribon, shu bilan birga, juda qattiqqo'l ham. Yaxshi o'zingiz, vaqtigizni bekor o'tkazmang, deb nasihat qiladi. Onam tarbiyachi bo'lgani uchun bizlarga juda ko'p hikmatli so'zlar, maqollarni o'rgatadi. Onamning aytishicha, «yaxshilardan bog' qoladi» degan hikmatli so'zning mazmuni shunday ekan - yaxshi insonlar o'z mehnatlari ila odamlarga, yurtga manfaat keltirib, yaxshilik qilaveradi. Mening bobom ham shunday inson bo'lganlar.

MEN QO'SHIQSIZ YASHAY OLMAYMAN

Hammasi o'sha kundan boshlandi. «Bo'lar bola besh yoshidan belgili» deydi dono xalqimiz. Shu aytilgani kabi, Oyjamol ham 5 yoshida qo'shiq aytib sahnaga chiqdi. Sahnaga bo'lgandayam naqd respublika jamoatchiligi huzuridagi katta sahna edi. Voqea bunday bo'ldi:

Oyjamolning Navbahor ismli «nihol»li raqqosa opasi bor. Shu opasi singlisining qo'shiq aytishga bo'lgan ixlosini sezib, uni Nukus shahar madaniyat uyi qoshisidagi «Novda» yosh o'spirinlar ansambiliga olib keldi. Bu yerda Oyjamolni ansambilning badiiy rahbari Gulnora Bekjonova bilan musiqa rahbari Ulbibi Abdullayevlar ochiq chiroq bilan kutib oldilar. Dastlab unga biladigan qo'shiqlarini kuylatib, ovozini sinab ko'rdilar. So'ngra esa yangi yaratilgan «Qo'g'irchog'im» qo'shig'ini o'rganish uchun berdilar. Bari mana shu kundan boshlandi.

DASTLABKI QADAM

Qo'liga qo'g'irchog'ini olib, yuragi hapqirib Oyjamol har kuni

mashg'ulotga qatnadi. Sababi, u shu qo'shiqni Mustaqillik bayramining olti yilligiga atab respublikaning bosh maydonida ijro qilishi kerak edi. Besh yashar qiz uchun buning qanchalik hayajonli voqea ekanligini o'zingiz ham bilsangiz kerak. Ha, u yursa-tursa qo'g'irchog'ini qo'lidan qo'ymas, doimo yonida olib yurar, qo'shig'ini takror-takror aytar, yod qilib yuborgan edi. Ammo... sahnaga chiqayotgan paytda, o'sha qo'g'irchog'ini unutib qoldirsa bo'ladimi?! Bu voqeani Oyjamolning o'zi shunday eslaydi:

- Quvonganim, hayajonlanganim shunchalik edimi, yuragim to'lib-toshib, qo'g'irchog'imni unutib, o'zim sahnaga otilib chiqib ketibman. Yaxshi ijro qilgan bo'lsam kerak, qo'shiqni tugatganimda Timur Kamolov meni ko'tarib, peshonamdan suyub, gul berdi. O'sha paytdagi quvonchimni so'z bilan ifodalab berishim juda qiyin.


Oyjamol shundan keyin madaniyat uyiga tez-tez kelib, yangi-yangi qo'shiqlar o'rgana boshladi. Mustaqillikning yetti yilligiga bag'ishlangan konsertda u «Ko'ylagim»

qo'shig'ini yuksak mahorat bilan ijro qilib, hammani qoyil qoldirdi. Qaysi bir qo'shiqni ijro qilmasin, yoqimli, jarangdor ovozi tomoshabinlar yodida saqlanib, eshitganlarning minnatdorchiligiga sababchi bo'laverdi.

HAMMA MENI «SARIQ QIZ» DEYDI

U poytaxtimizning 25-sonli o'rta maktabning 3-sinfida a'lo baholarga o'qimoqda.

- Baholarim barchasi besh, - deydi biz bilan suhbatda, - faqat rasm chizishdan «to'rt» baho olganman, xolos. Uyimiz Nukusning bir chekkasida «Qiz ketgan» mahallasida bo'lganligi sababli, mashg'ulotlarga qatnasholmay ham yurdim. Biroq men qo'shiqsiz yashayolmas ekanman. Qo'shiq aytmasdan tura olmayman. Sahnaga - mening qo'shiq kuylaydigan maydoncham. Yaqinda Chimboyda bo'lib o'tgan festivalda ham «Ko'ylagim» degan qo'shig'im bilan qatnashib qaytdim. Hozir esa «Musicha» degan qo'shiqni o'rganyapman, uni Mustaqillik maydonida bo'lib o'tadigan




2001 yil Zulfiya mukofoti sovrindori Diana MAMUTOVA, Qo'ng'iro'tumani.

Uyining atrofida turli-tuman mevalar o'sayotgan bog'lari bor. Hamma o'tgan-ketgan odamlar mevalarga og'zi tegib, bobomni yaxshi so'zlar bilan duo qilib o'tadi. Yaxshi odamlardan mana shunday yaxshi, ezgu ishlar qoladi.

Menimcha, mana shuni «Yaxshilardan bog' qoladi» deb aytga bo'ladi. Men ham bobolarim kabi yaxshi odam bo'lgim keladi.

3. Men ulg'ayganimda prokuror bo'lmoqchiman. Agar hokim bo'lib ketsam, Chimboyni go'zal shaharga aylantirar edim. Bolalar o'zlarining bo'sh vaqlarini ko'ngilli o'tkazishlari uchun stadion va parklar yo'q. Agar men hokim bo'lsam, bolalar uchun o'yin maydonchalarini, dam olish parklarini qurgan bo'lardim. «O'rjar» va «Kegayli» kanallarida bu yil suv bo'lmadi. Odamlar juda qiynalishdi. Suv bo'lmasa tirikchilik bo'lmaydi-ku. Hokim bo'lsam, shu kanallarni suvga to'ldirib qo'ygan bo'lar edim. Xullas, Chimboyni suvi mo'l, ozoda, soya-salqinli, yam-yashil shaharga aylantirgan bo'lardim.



«Кизил киймешек» миллий кийимбош

katta konsertda ijro qilaman.

- Oyjamol, seni odamlar ko'chada ko'rib qolishsa, darrov tanisa kerak?

- Ha, ko'rganlar darrov tanib, «Manavi televideniya qo'shiq aytib chiqadigan sariq qiz-ku!» deb imo-ishora qilishadi. Meni hamma «Sariq qiz» deydi. Biroq men bunga sira xafa bo'lmayman. Ayniqsa meni taniganlari uchun quvonib, yangi-yangi qo'shiqlar o'rganish uchun kuch va ilhom olaman. Xudo xohlasa, hali juda ko'p qo'shiq kuylab, xalqimni qoyil qoldiraman.

Gulmira MUSTAFOYEVA.

O'TMISH - ERTANGI KUN DARSILIGI

Ko'plab Temuriy malikalar ilm-fan, san'at, madaniyatning rivojlanishiga bosh-qosh

bo'lganlar. Temuriylar saltanatida alohida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan malika Saroymulkxonim ya'ni Bibixonimdir.

Tarixiy manbalarda Bibixonim haqida anchagina ma'lumotlar saqlangan. Manbalar esa malikaning hayoti va faoliyatini bilib olishga yordam beradi. Hayot ko'r bo'lsa ham baribir o'z tarixini paypaslab topadi. Shuning uchun ham o'tmishning hisobi kelajakning kitobi deyiladi. Siz Saroymulkxonim haqidagi teatrlashgan raqsni bir necha yildan buyon oynayjahon orqali tomosha qilgansiz. Qolaversa, kinolarda, videofilmlarda Saroymulkxonim obrazi sizga ham yoqqan. Xalq orasida Saroymulkxonim haqida juda ko'p afsona va rivoyatlar tarixiy ma'lumotlardanda ko'proq uchraydi. Samarqanddagi mashhur Bibixonim maqbarasi ham tarixdan bizga ko'plab afsonalar so'zlaydi. Har bir rivoyatda Bibixonimning go'zalligi, aql-farosati, vafodorligi tarannum etiladi.

Bibixonim 1341 yili mo'g'ul xoni Qozonxonning oilasida dunyoga keladi. Erta yetim qolgan Bibixonim otasi barpo qilgan zanjirsaroyda ulg'ayadi. Otasi o'z davrida saltanatida ko'plab islohotlar qilishga urinadi. Ammo ayrim amirlarning qarshiligiga duch kelib mag'lub bo'ladi. Bibixonim otasiz ko'p qiyinchilik bilan birga mashaqqatlar ham tortadi. Uni 14-15 yoshida Amir Husaynga uzatadilar.

1370 yili Amir Temur tomonidan Husayn mag'lub bo'ladi. So'ng u Kayxusrav tomonidan o'ldiriladi. Amir Husaynning mol-mulki, xarami Saroymulkxonim bilan birga Amir Temurga o'tadi. U Saroymulkxonimni o'sha yili Balxdan Samarqandga olib keladi. Bibixonim xonning qizi bo'lganligi uchun katta xonim degan nomga sazovor bo'ladi. Bibixonim katta xonim, bosh malika degan nomni umri davomida oqlaydi. Undagi aql-zakovat, tengsiz chiroy xuddi ertaklardagi malikani eslatadi. Chunki o'tmish yozuvi tarixning tanasidagi qonga o'xshaydi. Ertaklar esa doimo yaxshilik bilan tugaydi. Bibixonim haqidagi bizning go'zal ertagimiz ham hikoya qilib o'rganayotgan malikaning hayot yo'li haqida ekan, bir narsa, ya'ni ozgina yurakni og'rituvchi joyi borligiga afsus qilamiz. Negaki, Bibixonim dunyodagi eng yaxshi ta'rifu

edi. Ammo unga taqdir ona bo'lishdek baxtni ravo ko'rmagandi. Ne bo'lsada taqdiridan nolimagan malika Amir Temurning farzandlariga, nabiralarga bor mehr—muhabbatini baxshida etdi. Uning tarbiyasida xalollik, jasurlik, to'g'riso'zlik, yurtini ardoqlash, ota-onaga munosib farzand bo'lishdek vazifalar birinchi navbatda edi. Amir Temurning suyuqli nabiralari - Muhammad Sulton, Xalil Sulton, Mirzo Ulug'bek, Pir Muhammad Mirzolar Bibixonim tarbiyasi bilan o'sganlar. Bibixonim oilaviy barcha muammolarni yaxshilik bilan boshlab, yaxshilik bilan tugatuvchi ulug' shaxs edi. Amir Temurning harbiy yurishlarida, issiq-sovuqlarida yonma-yon bo'ldi. U dovrug'i dunyoga tanilgan Samarqanddek shaharning obod va ko'rkam bo'lishida munosib ulush qo'shgan.

Aytishlaricha Bibixonim olimlar, shoirlar va me'morlarga alohida mehr ko'rsatgan. Ularning ishlariga homiylik ham qilgan ekan. O'z mablag'idan ulug'vor madrasa bunyod qilishi ham Samarqandda katta voqea bo'lgan edi. Tarixchilar yozib qoldirgan manbalarda ham Bibixonim Amir Temurning eng yaqin maslahatgo'yi ham bo'lgan. Saroyda qaltis vaziyatlar yuzaga kelganida Amir Temurning qahriga uchraganlar oqila Bibixonim tufayli omonlik ko'rarkanlar.

Xotira - o'tmishni ortib olgan fikr karvoniga o'xshaydi. Xotira bir avlodni ikkinchi avlodga ulaydigan ko'prikk o'xshaydi. Samarqanddagi Jome' masjidining qurilishi Bibixonim nomi bilan bog'liqdir. Bu ulkan qurilishni garchand sohibqiron boshlagan bo'lsada, Bibixonim nihoyasiga yetkazgan. Yaxshi inson Bibixonim hayotidan bizga ulkan meros xotira bo'lib qoldi. Vatan obodligi va taraqqiyoti yo'lida qilingan bu ulkan obidada Bibixonim mehnati kelajak o'tmishdan saboq berayotgan eng ulkan darsga o'xshadi. Tarixlarda iz qoldirgan suyuqli momomiz Bibixonim maqbarasi bugungi kunda muqaddas ziyoratgohga aylantirilgan. Biz esa tarixni unutmasak, mehr- muhabbatni yo'qotmasak, insoniy fazilatimizni, Vatan oldidagi burchimizni tushunib yetgan bo'lamiz. Shuning uchun ham biz tarixni ulug'laymiz, o'rganamiz.

Ma'mura MADRAHIMOVA.

Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 121-maktabning 5- «B» sinf o'quvchisi Farangiz Abbosovani mahalladagilar «kichik shoira qiz» deb atashadi. Sinfda ham a'lo o'qishi, namunali xulqi, jamoat ishlarida faolligi bilan tengdoshlariga namuna bo'la oladi. Bir qancha she'riy mashqlari gazetaimizda bosilib chiqqan. O'zbekiston radiosi orqali tengdoshlariga o'z she'rlaridan namunalar o'qib berayotgan Farangizni suhbatga tortdik.

- Farangiz, she'r yozish osonmi?

- Bilmadim, ko'p she'r yodlaydigan, ko'p kitob o'qiydiganlar uchun qiyin bo'lmasa kerak.

- Qanday mavzularda she'r yozishni yoqtirasiz?

- Hamma mavzuda. Ayniqsa, Vatanga muhabbat, onalar mehri haqida hech qiynalmay yozaman.

- She'r yozishingizga tengdoshlaringiz qanday qarashadi?

- Havas qilishadi. Ular ham she'r yozishni xohlashadi. Ayniqsa, musobaqalarda hamma she'r yozib berishimni so'raydi. Maktabimizda o'tkaziladigan bayra-

mlarda boshlovchilik qilishni menga topshirishadi. O'zim ham «jon» deb rozi bo'laman. - Bo'sh vaqtlarda nimalar bilan shug'ullanasiz?

-Ko'proq kitob o'qishga harakat qilaman, ertak kitoblarni juda yaxshi ko'raman. Yana qo'shiqlar eshitaman. O'zimga yoqqanlarini xirgoyi qilib yuraman. (Biz undan biror qo'shiqni xirgoyi qilib berishini so'raganimizda, shu zahotiyoq,

YU.Usmonovanning «Hech kimga bermaymiz,

s e n i O'zbekiston» ashulasini aytib berdi).

- Farangiz, nega aynan YU.Usmonovanning ashulasidan aytdingiz?

- To'g'risini aytsam, qo'shiq aytishga juda qiziqaman. Xudo xohlasa kelajakda Yulduz Usmonovadek mashhur qo'shiqchi bo'lish niyatidaman. Buning uchun esa hozirdanoq harakat qilyapman.

- Nega endi qo'shiqchi? - Bilasizmi, nazarimda har bir insonning ko'ngli qo'shiqdan orom oladi. Boshiga musibat tushgan odamning qalbi ham undan taskin topadi.

- Qo'lingizdagi daftarlarning biri she'rlaringiz bilan to'libdi, yana biri turli rasmlar bilan.

Rasm ham chizib



xushovoz qo'shiqchi bo'lish.

- «Tong yulduzi» gazeta-siga, tengdoshlaringizga tilak-

porloq kelajak, o'qishlaringizda omad tilaymiz.

Kelajakdan orzularim, umidlarim bir jahon.

Go'yo jajji yuragimda joylashgan veru osmon.

Marra sari dovonlardan sergak.

hushyor o'taman.

Yorug' kunning tonglaridan yaxshiliklar kutaman.

Istiqlolning qo'llaridan men mahkamroq tutaman.

Adolat G'AYRAT qizi, O'z MU talabasi

- Farangiz, biz ham sizga

FARANGIZNING OYDIN ORZULARI

turasizmi deyman-a?

- Ha, she'riyatga qiziqishim onamdan o'tgan bo'lsa, rasm chizishga qiziqishim otamdan o'tgan deb o'ylayman.

- Kelajakdagi orzularingiz?

- Orzularim osmondagi yulduzlardek juda ko'p. Eng kattasi yuqorida aytganimdek, mashhur,

laringiz?

«Tong yulduzi» gazetasi xodimlari sira charchashmasin, tengdoshlarim sog' bo'lishsin, o'qishlari a'lo bo'lsin. Hammalari otanalari orzulagandek komil insonlar bo'lib yetishishsin.

- Farangiz, biz ham sizga



IBN SHIFO - ULASHAR DAVO

Пўлат МУМИН

Bo'lsa ham tekin
Xo'p chaynab yegin.

Ovqatdan oldin
Qo'l yuvish oltin.

Oz-ozdan yegin,
Soz-sozdan yegin.

Yer chog'ing ovqat
Bo'lma betoqat.

Ovqatga bo'kish
Daryosiz cho'kish.

Chanqaganda, bil,
To'yib ichmagil.

Yeb turib minnat -
Qilmoqlik illat.

Xom bilan harom
Etmaydi sog'lom.

Me'da bo'lsa to'q
Xijolatlik yo'q.

Qorning bo'lsa och,
To'yanlardan qoch.

Ovqatdan quvvat,
So'zdan muruvvat.

Shap-shap qilmay ye,
Ko'p gap qilmay ye.

To'kin dasturxon
Uning ko'rki non.

Zo'riqib yema,
Zoriqib yema.

Ko'p yeb maqtanish
Eng yaramas ish.

Tundagi ovqat
Qilar betoqat.

Yesang ko'p turli,
Tagi puturli.

Och va o'ta to'q
Aytolmas qo'shiq.

Ovqatni isrof
Qilar noinsof.

To'ydir ko'zingni
Keyin o'zingni.

Parhez taomi
Davo davomi.

Ovqatda me'yor -
Sog'liqqa hamkor.

Bo'lmay uyumli,
Bo'lsin to'yimli.

Parhezni buzma
Umidni uzma.

Qoldim deya kech
Xo'rillatmay ich.

O'rgan qatiqqa,
Kerak sog'liqqa.

Yil bo'yi piyoz
Yeyilgani soz.

Onang ovqati
Jonning rohati.

Barcha vitamin
Sog'liqqa zamin.

Qorin bo'lsa qop
Og'zin o'zing yop.

Yesang dil tortsin,
Ozgina ortsin.

Hadeb dema «ol»,
Keladi malol.

Sevib yeganing
Yayratar taning.

Olma ye gohi
Mevalar shohi.

Bil, ovqat mahal
Chiqarma janjal.

Yurakka kerak
Bargak va turshak.

Bo'lmasin og'iz
Misli yalmog'iz.

Yeb bo'lib ovqat
Yugurma faqat.

Ko'p yesang yog'liq,
Oxiri dog'liq.

Turli oshko'kat -
Unda ko'p hikmat.

Ovqat bekitish
Yuz tuban ketish.

Yolg'on ranjitar,
Yovg'on lanj etar.

«Topilsa yeb qol» -
Deyish eng qo'pol.

Bil, oddiy tuxum
Davo to'la xum.

Har qaysi meva
Shifoga ega.

Qara non, gulga,
Tegmas ko'ngilga.

Kulgi - qahqaha,
Ochar ishtaha.

Yotishda olma
Yeyishdan tolma.

Keksani aksar
Ovqat ham asrar.

Butun to'rt fasl
Yeb - ichma bir xil.

Do'st dardini tez
Qalbing bilan sez.

Aslida tarvuz -
Degani - «dard buz»!

Uyda o'ynab ye
To'yda o'ylab ye!

Ovqatlanish ham
San'at chinakam.

Eng yaxshi odat-
Sabru qanoat.

Oz-ozdan yeydi qush,
Bo'lmaydi noxush.

Agar bo'lsang mard
To'ymay qo'ling art.

O'rgangan taom
Etadi sog'lom.

Ochda uyqu yo'q,
Uxlolmaydi to'q.

Ichmoqlikni sut
Doim esda tut.

Oshga yarashiq
Tanlagin qoshiq.

Kelganida yoz
Ozroq yegan soz.

Ertalab yengil -
Ovqatdan yegil.



Atlantika okeanining quyilish qismida joylashgan Angliyaning juda chiroyli shaharlaridan biri Borlust maktabida ta'lim olgan Jahongir Yo'ldoshev 1992 yil 2 avgustda Farg'onada tug'ilgan. Hozirda Respublika Ijtimoiy yo'nalishdagi maxsus gimnaziyaning 3- «YE» sinfida a'lo baholarga o'qimoqda. Sinf rahbari Matluba Aliyeva, tarbiyachi Dildora Saidovalarning taklifiga binoan Jahongirni suhbatga tortdik.

-Chet elda ta'lim olish bilan birga yana qanday taassurotlar oldingiz?

-Angliyaning poytaxti Londonda bo'ldim. «Madam Tusso»

joylarni ko'rdim. Parijda «Yelisey xiyoboni», Napoleon, Aleksandr II qurgan ko'prikn ko'rdim,


o'xshatdim.

-Qayerda

-Ko'pchilik bo'lib borgan eksansizlar-da?

-Ha, imkoniyat yaratilib qoluvdi, ular ham borishdi.

-O'qishdan tashqari yana nimalar bilan mashg'ulsiz?



Parijdagi mashinalarning yagona nusxadagi esklyuziv modellari jamlangan magazinda tushgan suratim.

JAHONGIR

muzei, planetariyaga bordim. Yana parom orqali Belgiyada, Fransiya bo'lib, diqqatga sazovor

Notrdamda bo'ldim. Belgiyaning poytaxti Bryusselda esa o'sha kuni shahar bayrami ekan. Orkestrlar ijrosidagi xalq saylini tomosha qilib, bizning katta tantanalarmizga

yashadigiz? -Bilasizmi, ular ham ko'p bolalikni yaxshi ko'rishar ekan. Biz yashagan oilaning to'rt nafar farzandi bor edi. Ular o'zaro juda ahil va intizomli. Oyim, men va opalarimni juda yaxshi qabul qilishdi.

Musiqadan, ya'ni skripkadan saboq olaman. Ustozim Roza Rajabova musiqa sehridan dars berishga mohir ustalar. Sport turlaridan suzish va karatega boraman. Uyimizdagi maxsus trenajer zalida har kuni mustaqil shug'ullanaman. Shaxsiy kompyuterimda yangi o'zlashtirgan inglizcha

so'zlardan insho yozishga harakat qilaman. -Ulg'ayganda kim bo'lmoqchisiz? -Orzuim - diplomat bo'lish. Chunki diplomatda hamma yaxshi xususiyatlar jamlangan bo'ladi. Qaddi-qomat, kiyinish san'ati, muomala, mehmon kutish va mehmonga borish

madaniyati, sovg'a topshirish va olish tantanasi, stol atrofida o'zini tutish, hamkasblar bilan do'stona munosabatda bo'lish, xorijliklarga o'zini va yurtini namoyon eta olish. -Orzuigingiz ijobat bo'lishiga tilakdoshman, yosh diplomat, Jahongir.

Muharrama PIRMATOVA.

YOSHLAR YOSH QALAMKASHLAR

MEHMONI BO'LIHDI

АДОЛАТ ФАЙРАТ
ҚИЗИ

Adolat G'ayrat qizi va Shahlo
Mutalovalarning nomlari
«Tong yulduzi» gazetasi

mualliflariga juda yaxshi tanish.
Chunki bu umidli qizlarimiz
turli mavzulardagi maqola va
xabarlari, pazandalik saboqlari
bilan gazetamiz mazmunini
yanada boyitishga o'z hissalarini
qo'shib kelishyapti. Ayni paytda
Shahlo O'zbekiston Milliy
Universiteti jurnalistika
fakultetining 3 - bosqichida.
Adolat esa 2 - bosqichida tahsil
olishyapti. Har ikkisi ham o'qish
amaliyotini aynan bizning
gazetamizda o'tashdi.
Ularni «Istiqlol umidlari»

to'garagimizning navbatdagi
mas'ulotiga taklif
etganimizda, yoshlarning
o'quvchilarga aytadigan nima
gaplari ham bo'lishi mumkin.
deya biroz ikkilangandik. Buni
qarangki, qizlarimizning yosh
qalamkash uka va singillariga
aytar gaplari ko'p ekan:
Maktabda o'qib yurgan
damlaridayoq «Tong yulduzi»ga
maqolalar olib kelishgani,
ularga ustozlik qilgan ijodkor
opalari, universitetga o'qish



Шахло МУТАЛОБА

jarayonini amaliyot bilan
qo'shib olib borishayotgani
ijobiy samara berayotgani
haqida gapirdilar. O'z
ijodlaridan namunalar o'qib,
o'quvchilarning she'riy
mashqlaridan tingladilar.

OMBORDAGI AVFISHUV

Bir voqea so'zlayman,
Undan ma'no ko'zlayman.
Yo'lim tushgani zamon,
Borardim ombor tomon.
Ombor ichiga kirsam,
Idish-tovoq jamu-jam.
Aytishuvning ustidan,
Chiqib qolibman shu dam.
Tinglasam men so'zlarim,
Maqtab ketdi o'zlarim.
Qovoq boshim qashladi,
Ohista so'z boshladi:
- Men qovoqman, qovoqman,
Do'stlar bilan inoqman.
Hamma xush ko'rib yeydi,
Ming dardga davo deydi.
Qovoqqa labin burib,
O'rniidan shartta turib,
So'zin boshladi elak,
- Ro'zg'orga men eng kerak.
Bekalar buyurganda,

So'zin qilmayman kanda.
Un elashni boshlayman,
Shoshamanu toshmayman.
Bir ishini qilmay turib,
Qovoq kabi lof urib,
Maqtanishni bilmayman,
Ishni kanda qilmayman.
Gaplarin tinglab rosa,
So'zin boshlabdi kosa.
- Do'stlar, tinglangiz so'zim.
Sizlarga do'stman o'zim.
Maqtanishchilik yaxshimas,
Fazilatlar nashinimas.
Kamtarlar ko'rmas zavol,
Ularga hamroh kamol.
So'zim o'tirmay cho'zib,
Birlashig, ketmang to'zib.

Nazokat UMAROVA,
Chilonzordagi 200 - litsey
maktabning
9 - sinf o'quvchisi.

AYTAYLIK

Tushingizda sizni yirtqich hayvonlar quvlayapti. Siz ulardan
qanday qutulishingiz mumkin?

(УЛЙОНДИ)

Og'zida tishi yo'q odam tish azobini qachon his qiladi?

(ИТ ТИШЛАНДИ)

Qachon uchni ko'rib, o'n besh deymiz? (ЭД Э ТВОС ЭДНУЖ)
Olaqarg'a o'zini «men qushman» deb ayta oladimi?

(ИТТЯМНО ВДИПЕЛ У ИЖНУ. ИЖ)

Uyning har burchagida bittadan mushuk o'tiribdi. Har bir
mushukning ro'parasida bittadan mushuk o'tiribdi. Xonada
hammasi bo'lib nechta mushuk bor?

(ТЯПТА)

Bir oilada cholu kampir yashaydi. Ularning ikki o'g'li bor. Har
ikki o'g'ilning bittadan singlisi bor. Bu oilada nechta kishi
yashaydi?

(Бешта. Чолу кампир, икки угли ва бир киз).

Qanday idishni hecham to'ldirib bo'lmaydi?

(Тепик илпиди).

Yunusobod tumanidagi 273 - litsey maktab o'quvchisi
Dilnoza PO'LATOVA tayyorladi.

ILTIJO

Ko'zlarimdan tinmay oqayotgan yosh,
Bu sevinch yoshlari, ishonig menga.
Balki so'nayotir eng so'nggi bardosh,
Balki kulmas endi ko'kdagi quyosh.
Qayon ketdi mening orzu tilagim,
Nechun so'lg'in bugun o'tli yuragim?
Bag'ri keng dunyoga sig'masa nahot,
Mening g'aribgina mo'jaz tilagim...
Gar shunday bo'lsa ham sabr qilay biroz,
Balki osmonimda qushlarim uchar.
Balki kulib boqar ko'kdagi quyosh,
Balki bir kun meni baxt, omad quchar.

Vazira ISOQOVA,

Farg'ona viloyati, Uchko'priq tumanidagi
5 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi.

KULING DO'STLAR

Kulgan inson qarimas,
Udir dardlarga darmon.
Hech kulmaydigan odam,
Bo'lur hissiz, notavon.
Kim kulgusevar bo'lsa,
Qalbi shodlikka to'lsa,
Umri uzun bo'ladi,
Yuz yil umr ko'radi.

Nargiza HAMIDOVA,
Sirdaryo viloyati, Sirdaryo
tumanidagi Beruniy nomli
36-maktab o'quvchisi.

USTOZ MUALLIM

Maktabga chiqqanimda,
Qo'limdan tutgan inson.
Bilim sari yetaklab,
Zahmat chekkan bir jahon.
Sizsiz ziyo ulashgan,
Mehribonim ustozim.
Qo'lim qo'yib ko'ksimga,
Qilaman sizga ta'zim.
Siz bo'lsangiz gar falak,
Bo'lay deyman bir yulduz.
Sizsiz ikkinchi onam,
Men esa sizga bir qiz.




Gulnoza SHOKIROVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
38 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi.

G KROSSVORDI

Ushbu krossvordda G harfi bilan boshlanadigan so'zlar yashiringan.

1. «Bilmasvoy va do'stlarining havo sharidagi sayohati» nomli ertakdagi shoira qizaloqning ismi.
2. Bolalar yo'talganda damlab ichiladigan gul.
3. Gullarning gulbarglarini birlashtirib turadigan tag qismi.
4. Anorning guli.
5. Go'zal qizlarga nisbat qilinadigan so'z.
6. Atirgulning suvi.
7. Shakar va atirgul suvidan tayyorlanadigan malham.
8. Sariq na'matakning guli.
9. Erta bahorda pishadigan karam.

Tuzuvchi: Gulnoza TOJIBOYEVA,
Sirg'ali tumanidagi 252 - maktabning 5 - sinf o'quvchisi.



O'tgan sondagi boshQotirmalarning
javoblari

Belgilardagi jumboQ

Yapon menejmenti qoidasi:
Asl maqsad sifatdir, foyda esa o'zi kelaveradi.

«Kitob» muammonomasi

Ochqich so'zlar: 1. «G'uncha». 2. Hikmat. 3.
Varaq. 4. Adib.

Hikmat:

Ichi g'uncha kabi varaq - varaqdir,
Qimmatda har varaq tabaq-tabaqdir.

AMERIKACHA BOSHQOTIRMA

Eniga: A. Fir'avn. B. Ifo. D. Yeng. E. Vatan. F.
Osh; sak G. «Rama»; it. H. Idora.
Bo'yiga: 1. Filvord. 2. If; Asha. 3. Rost; mi. 4.
Asad. 5. Arena. 6. Kir. 7. Negr; ta.

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining
gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLAT»
YOSHLAR
IJTIMOIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa

MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,

Mukarrama

MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir

«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 58.519
nuxxada ofset usulida
bosildi.

Korxona manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.

Buyurtma № T-3092
Gazetani
Abduhamid
ABDUG'AFFOROV
sahifaladi.
Navbatchi:
Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08